



## **MUSIQA DARSLARIDA TOPISHMOQLARNING O'RNI VA AHAMIYATI**

**Muallif:** Suvonqul Namozov<sup>1</sup>

**Affiyatsiya:** Samarcand viloyati Bulung'ur tuman Maktabgacha va maktab ta'llimi bo'limiga qarashli 26-umumta'llim maktabi musiqa madaniyati fani o'qituvchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14384626>

Musiqa darslari reja bo'yicha haftasiga 1-soat etib belgilangan. Ammo shu bir soatlik darsni o'quvchilar intiq bo'lib kutishadi. Ular nafaqat kuylash, balki musiqaning sehrli olami bilan ham yaqindan tanishadilar. Ammo darsliklarda ma'lumotlar juda qisqa berilgan va o'quvchilar ularni eslab qolish uchun bu ma'lumotlar kamlik Qiladi. Shu o'rinda men ma'lumotlarga topishmoq orqali murojat etaman. Masalan karnay cholg'usi haqida

Oltindayin porlayman,  
Tantanaga chorlayman.  
Misdan yasalgan tanim,  
O'zbekiston vatanim.  
Sevimli ukam surnay,  
Deydilar meni .....(karnay)

Bunda axborot kompetensiyasini qo'llagan holda karnay cholg'usi haqida ma'lumot berilyapdi. Uning misdan yasalganligi, milliy cholg'umiz ekanligi, tantanalarda ijro etilishi va surnay bilan birga ijro etilishi haqida topishmoq orqali soddagina ta'riflanayabdi. Ma'lumki o'quvchilar topishmoqlarni sevib tinglashadi va ularni jonu dili bilan topishga harakat qilishadi. Shu o'rinda milliy cholg'ularimizning o'xshashlik jihatlari ko'p bo'lganligi uchun o'quvchilar ba'zan ularning nomlarini adashtirishadilar, shu ma'noda topishmoq orqali murojat yaxshi samara beradi. Tanbur va dutor, bulamon va surnaylar bir-biriga o'xshaydi.

Sozlanishim kvinta,  
Ba'zan esa kvarta.  
Ipakdan bor ikki tor  
Ohanglarda menga yor  
Bundan hech qilmayman or  
Deydilar meni ..... (dutor)

Yoki tanburga  
Bir oz dilni g'ashlayman,  
Ba'zan ko'zni yoshlayman.

Barmoq taqqanda noxun,  
Torlarim yiglar xun-xun.  
Emasman hech takabbur  
Xas pardali men ..... (tanbur)

Yoki alteratsiya belgilariga  
Kuyni ko'tarib bir oz,  
Deyman ohang bo'ldi soz.  
Demang meni panjara,  
Menda ham bor shajara.



Qoldirib o'zimdan iz,  
Atashar meni ..... (diyez)

Yarm tonga pastlayman,  
Doim tartib saqlayman.  
Bir oz qorincham semiz,  
Emasman hech betamiz.  
Qani ayt-chi sen Jamol  
Deydi-ku meni ..... (bemol)

Notalarga.

Besh chiziqda sakraymiz,  
Joy almashib yayraymiz.  
Kuy,ohang yaratamiz,  
Barchani qaratamiz.  
Topolmaysiz hech xato  
Bizlar-chi quvnoq ..... (nota)

Hamma joyim ozoda,  
Yuzim oppoq va toza.  
Shaklim oval yumaloq,  
Yonlарimda yo'q tayoq.  
Qilmang sira ham xato,  
Der meni butun ..... (nota)

Maqom haqida  
Atamamiz "o'rin-joy,"

Shu tartibda boshqa topishmoqlar ham o'quvchilarda musiqaga bo'lgan mehrni oshiradi va ularda musiqa cholg'ularini, atama terminlar va musiqaning ifoda vozitalarini yodda saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi va yaxshi natija beradi.

Meni ko'p yillik ijodiy tajribalarim davomida hamda ilmiy-amaliy kuzatishlarim, o'zbek milliy cholg'ularining o'ziga xos xususiyatlari, ijrochilik tembridan kelib chiqib, ularning ayrimlarini go'yo bahslashib qolgan, jarayoniin she'riy misralarga tushurishga harakat qildim. Quyida ularni ayrimlarini keltirib o'tdim:

### O'ZBEK MILLIY CHOLG'ULARI BAHSI.

Orkestrda jam bo'ldi,  
Barcha milliy cholg'ular.  
Atrof shovqinga to'ldi,  
Bari obro'y belgilar.

Changni besh-olti kishi,  
Ko'tarib keldi zo'rg'a.

Bilsang kerak hoy-nahoy.  
Tarkibimiz juda soz,  
Hurmatlashar deb mumtoz.  
Xizmatdamiz biz mudom,  
Derlar bizlarni ..... (Maqom)  
Aytsam sizga tafsilot,  
Sherigimdir mushkulot.  
Mazmunim "ko'mak,zafar,"  
Qo'shiq kuylar har safar.  
Topsangiz beray qasr  
Deydilar meni ..... (nasr)

Baxshilarga  
Moziylardan so'zlaymiz,  
Terma,doston kuylaymiz.  
Jo'rdir bizga do'mbira,  
Qo'ldan qo'ymaymiz sira.  
Aytin-chi siz yaxshilar,  
Deydi bizni ..... (baxshilar)

Tinim bilmay bo'zlayman,  
Dasht-u qirni izlayman.  
Momom rosa chaladi,  
Barcha qoyil qoladi.  
Gapim tinglang bir og'iz  
Deydi meni ..... (Changqo'biz)

Anchayin xurmatlashib,  
O'tqazib qo'ydi to'rga.

Shunda bahs boshlandi,  
G'ala-g'ovur avjida.  
Bir-biriga tashlandi,  
Holat yomondir juda.

Doira:

Zarbamni tatib ko'ring,  
Mensiz barchangga qiyin.  
Agar usul bermasam,  
Hammalaring bir tijin.

Rubob:

Barchangizdan o'zim zo'r,  
Dedilar-ku kerilib.  
Bo'laman men doim jo'r,  
Kibrlarga berilib.

Chang:

Bormi o'zi sizlarda,  
Dyonatu nomus or.  
Axir yakka o'zimda,  
Qirqdan ziyod bordir tor.

G'ijjak:

Agar tortsam-chi kamon,  
Holingiz bo'lar yomon.  
Taratsam gar men sado,  
Tiz cho'kar shohu-gado.

Nay:

Kichik demangiz bizni,  
Hurmat qilamiz sizni.  
Nolamiz shira-asal,

Hatto sog'ayar kasal.

Dutor bas:

Qani jiyanim dutor,  
Bularga aytib yubor.  
Aslida-chi hammanga,  
Men o'zimdir poy devor.  
Dirijyor kelib qoldi,  
Sozlarga qulq soldi.  
Bahs-u munozaralardan,  
U xayronu lol qoldi.

Dirijyor:

Zoye ketkizmanglar vaqt,  
Har kim o'zichadir haq.  
Shuni doim bilinglar,  
Doim yodda tutinglar.

Hammaning o'z o'rni bor,  
Bundan bo'ling baxtiyor.  
Barchangiz doston,g'azal,  
Siz bilan san'at go'zal.

Sozlar darhol yarashdi,  
Kechirimlar so'rashdi.  
Yashnab yuzlari gul-gul  
Xursand bo'lди Suvonqul

